https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble

Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Ziyodullayev Doniyor Umid o'g'li
Termiz Davlat Universiteti,
Tarix fakulteti 2-kurs talabasi

"ARAB XALIFALIGINING PARCHALANISHI SABABLARI"

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada VIII-X asrlarda Arab xalifaligida yuz bergan siyosiy inqiroz va parchalanish jarayonining asosiy omillari tahlil qilinadi. Tadqiqot maqsadi xalifalikning yemirilishiga olib kelgan ichki va tashqi omillarni aniqlash hamda ularning o'zaro ta'sirini ko'rsatishdir. Maqolada tarixiy manbalar, xronikalar va zamonaviy tadqiqotchilarning asarlari tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, xalifalikning haddan tashqari keng hududlarga yoyilishi, turli etnik va diniy guruhlarning mavjudligi, ma'muriy boshqaruv tizimidagi zaifliklar, diniy-mafkuraviy ziddiyatlar (sunniy, shia, xorijiy oqimlar o'rtasidagi nizolar) va mahalliy sulolalarning kuchayishi (Tohiriylar, Safforiylar, Somoniylar) parchalanishning asosiy sabablarini tashkil etadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Horun ar-Rashid (786-809) davridan boshlab markaziy hokimiyatning zaiflashishi kuzatila boshlagan va X asrga kelib xalifalik faqat diniy-ramziy institutga aylanib qolgan. Maqola O'rta Osiyo tarixida mahalliy davlatlarning shakllanishini tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Arab xalifaligi, Abbosiylar, parchalanish, siyosiy inqiroz, mahalliy sulolalar, Movarounnahr, Xuroson, diniy ziddiyatlar, Tohiriylar, Safforiylar, Somoniylar, markaziy hokimiyat

ABSTRACT:

This article analyzes the main factors behind the political crisis and fragmentation of the Arab Caliphate during the 8th-10th centuries. The research

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

aims to identify internal and external factors that led to the decline of the Caliphate and demonstrate their interconnection. Historical sources, chronicles, and contemporary scholarly works were analyzed. The results show that excessive territorial expansion, ethnic and religious diversity, administrative weaknesses, ideological conflicts between Sunni, Shia, and Kharijite movements, and the rise of local dynasties such as the Tahirids, Saffarids, and Samanids constituted the primary causes of disintegration. According to research findings, the weakening of central authority began during the reign of Harun al-Rashid (786-809), and by the 10th century, the Caliphate had become merely a symbolic religious institution.

Keywords: Arab Caliphate, Abbasids, disintegration, political crisis, local dynasties, Transoxiana, Khorasan, sectarian conflicts, Tahirids, Saffarids, Samanids

KIRISH

O'rta asrlar Sharq tarixida Arab xalifaligi eng qudratli siyosiy-diniy davlatlardan biri bo'lgan. VII asrning o'rtalarida Arabiston yarim orolida paydo bo'lgan bu davlat qisqa vaqt ichida Osiyo, Shimoliy Afrika va Yevropaning janubiy qismlarini qamrab oldi. Umaviylar (661-750) va Abbosiylar (750-1258) sulolalari davrida xalifalik islom shariyati asosida boshqarilib, katta siyosiy, iqtisodiy va madaniy ta'sir kuchiga ega bo'ldi. Biroq, tarixiy jarayon davomida bu ulkan imperiya ham tabiiy holda o'zining yuksalish va tanazzul davrlarini boshdan kechirdi. Xususan, VIII asrning oxiri va IX asrning boshlaridan e'tiboran xalifalikda markaziy hokimiyatning zaiflashuvi, hududiy ajralishlar va mustaqil sulolalarning paydo bo'lishi jarayonlari kuzatila boshladi.

Arab xalifaligining parchalanish jarayoni turli davrlarda ko'plab tarixchilar va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Klassik islom tarixchilari, jumladan, at-Tabariy (839-923), al-Masudiy (896-956) va Ibn al-Asir (1160-1233) o'z asarlarida xalifalikdagi siyosiy inqirozlarni batafsil tasvirlab berganlar. Ular xalifalikda yuz

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

bergan ichki nizolar, qo'zg'olonlar va sulolalar o'rtasidagi kurashlarni birlamchi manbalar sifatida yozib qoldirganlar. XX-XXI asrlarda G'arb va Sharq tarixshunosligi Arab xalifaligi tarixiga yangi yondashuvlar kiritdi. Hugh Kennedy o'zining "The Prophet and the Age of the Caliphates" (2016) asarida xalifalikni parchalanishini siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan tushuntirishga harakat qilgan.

Tayeb El-Hibri esa "The Abbasid Caliphate" (2021) kitobida Abbosiylar davrini to'liq tahlil qilib, markaziy hokimiyatning zaifligini ma'muriy tizim kamchiliklari bilan bog'lagan.

Rus tarixshunosligi an'analarida V.V. Bartold "Turkiston tarixiga doir asarlari"da (1963) Movarounnahr va Xurosondagi mahalliy sulolalarning mustaqillikka erishish jarayonini batafsil yoritgan. E.A. Belyaev "Araby, islam i arabskiy xalifat" (1965) asarida xalifalikni umumiy tarixini bayon etib, parchalanish sabablarini sinfliy ziddiyatlar va feodal tuzumning rivojlanishi bilan izohlagan. O'zbek tarixshunosligi vakillari, jumladan Q. Usmonov, M. Sodiqov, A. Zamonov va S. Abdusodiqov o'z asarlarida O'rta Osiyo xalqlarining xalifalik tarkibida va undan keyingi tarixiy taqdirini tahlil qilganlar. K.E. Bosvortning "Musulmon sulolalari" (2007) asari esa sulolalar tarixi va ularning xronologiyasi bo'yicha muhim ma'lumotnoma hisoblanadi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Arab xalifaligining parchalanish jarayoni ko'p jihatdan o'rganilgan bo'lsa-da, ba'zi masalalar hanuz to'liq yoritilmagan. Ko'pgina tadqiqotlar xalifalikni parchalanishini alohida omillar (masalan, faqat diniy yoki faqat siyosiy) orqali tushuntirishga harakat qilgan, biroq bu omillarning o'zaro ta'siri va kompleks ta'sirini tahlil qiluvchi yondashuvlar kam. Movarounnahr va Xurosondagi sulolalarning mustaqillikka erishishi ko'pincha xalifalik tarixidan ajratib o'rganiladi, ammo bu jarayon xalifalikni umumiy parchalanishi bilan qanday bog'liqligi yetarlicha tahlil qilinmagan.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi VIII-X asrlarda Arab xalifaligida yuz bergan parchalanish jarayonining asosiy omillarini aniqlash va ularning o'zaro

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

ta'sirini ko'rsatishdir. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: xalifalikda parchalanish jarayonining tarixiy bosqichlarini aniqlash, parchalanishga olib kelgan siyosiy, diniy, iqtisodiy va ma'muriy omillarni tahlil qilish, Movarounnahr va Xurosonda mahalliy sulolalarning mustaqillikka erishish jarayonini ko'rsatish hamda xalifalikni parchalanishining O'rta Osiyo tarixi uchun ahamiyatini baholash.

MUHOKAMA

Ushbu tadqiqotda tarixiy manbalar, klassik islom tarixchilarining asarlari (at-Tabariy, al-Masudiy, Ibn al-Asir xronikalari), zamonaviy G'arb tarixshunosligi asarlari (Hugh Kennedy, Tayeb El-Hibri, Amira Bennison), rus tarixshunosligi tadqiqotlari (V.V. Bartold, E.A. Belyaev, I.M. Filshtinskiy) hamda o'zbek tarixshunosligi asarlaridan (Q. Usmonov, A. Zamonov, K.E. Bosvort tarjimasi) foydalanilgan. Tadqiqotda tarixiy usul, taqqosiy-tarixiy usul, tahliliy usul va sistemli yondashuv qo'llanilgan. Xronologik chegara VIII asrning ikkinchi yarmi - X asr oxiri (750-1000 yillar), geografik chegara esa Arab xalifaligining asosiy hududlari, xususan Bag'dod, Xuroson, Movarounnahr va Eron hududlarini qamrab oladi.

Tarixiy manbalar va tadqiqotlar tahlili asosida Arab xalifaligining parchalanish jarayonini quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich (750-809) Abbosiylarning yuksalishi va birinchi zaiflik alomatlari bilan xarakterlanadi. Abbosiylar 750-yilda hokimiyatga kelish bilan birga xalifalikni poytaxtini Damashqdan Bag'dodga ko'chirdilar. Bu eron va o'rta osiyolik musulmonlarning siyosiy ta'sirini oshirdi. Biroq Horun ar-Rashid (786-809) davrining oxirlaridan boshlab markaziy hokimiyatning zaiflashuvi sezila boshladi. Horun o'z o'g'illari al-Amin va al-Ma'munni turli hududlarga hokimlar qilib tayinladi, bu esa keyinchalik ular o'rtasida fuqarolar urushiga (809-813) sabab bo'ldi.

Ikkinchi bosqich (813-870) mahalliy sulolalarning paydo bo'lishi davri hisoblanadi. Al-Ma'mun (813-833) davrida Xurosonda Tohiriylar sulolasi (821-873)

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

mustaqillikka erisha boshladi. Tohir ibn Husayn al-Ma'mun tomonidan Xuroson va Movarounnahr hokimi etib tayinlangan bo'lsa-da, u amalda mustaqil siyosat yurita boshladi va 822-yildan boshlab xalifa nomiga xutba o'qishni to'xtatdi - bu rasmiy mustaqillik belgisi edi. Janubiy Eronda esa Safforiylar sulolasi (861-1003) paydo bo'ldi.Ya'qub ibn Lays as-Saffar oddiy misgar (saffar) bo'lsa-da, harbiy yo'l bilan katta hududlarni egallab, xalifaga bo'ysunishdan bosh tortdi.

Uchinchi bosqich (870-945) markazsizlashuvning kuchayishi davri bo'lib, IX asrning oxiri va X asrning boshlarida Movarounnahrda Somoniylar sulolasi (819-999) to'liq mustaqil davlatga aylandi. Ismoil Somoni (892-907) davrida Somoniylar davlati Xuroson, Movarounnahr va hatto Afg'onistonning ba'zi qismlarini o'z ichiga olgan markazlashgan davlatga aylandi. Shu davrda Misrda Tuluniylar (868-905), Shimoliy Afrikada Ag'labiylar (800-909) va keyinchalik Fotimiylar (909-1171) mustaqil sulolalar sifatida faoliyat ko'rsatdilar.

To'rtinchi bosqich (945-1055) xalifaning ramziy hokimiyati davri sifatida tarixga kirdi. 945-yilda Buvayxiylar sulolasi Bag'dodga kirib keldi va xalifa faqat diniy rahbar mavqeida qoldi. Xalifa o'z nomidan farmon chiqara olmas, soliq yig'a olmas va qo'shin boshqara olmas edi. Haqiqiy hokimiyat "amir al-umaro" unvoniga ega bo'lgan harbiy rahbarlarda edi. Beshinchi bosqich (1055-1258) Saljuqiylar va xalifalikni yakuniy tanazzuli davri bo'lib, 1055-yilda Saljuq turklari Bag'dodga kirib keldi va xalifa endi "sulton" unvoniga ega bo'lgan turk hukmdorlariga bog'liq bo'lib qoldi. 1258-yilda mo'g'ullar tomonidan Bag'dodning bosib olinishi va oxirgi Abbosiy xalifa al-Musta'simning o'ldirilishi bilan xalifalik tarixan yakuniga yetdi.

Arab xalifaligining parchalanishiga bir qator omillar sabab bo'lgan. Birinchidan, geografik va ma'muriy omil muhim rol o'ynadi. Arab xalifaligi VIII asrning o'rtalarida Atlantika okeanidan Hind okeanigacha cho'zilgan ulkan davlatga aylangan edi. Bu haddan tashqari keng hududlarni bir markazdan boshqarish tobora qiyinlashib bordi. Markazdan uzoq hududlarga xalifaning buyruqlari bir necha oy ichida yetib borardi, mahalliy hokimlar o'z mintaqalarida deyarli mustaqil faoliyat olib borar edilar, har bir hudud o'ziga xos iqtisodiy,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

madaniy va etnik xususiyatlarga ega edi. Hugh Kennedy ta'kidlaganidek, "Abbosiylar imperiyasi o'zining kengligidan zarar ko'rdi. Markaziy hukumat mahalliy hokimlarni to'liq nazorat qila olmadi va ular asta-sekin mustaqil sulton bo'lib ketdilar."

Ikkinchidan, etnik va madaniy xilma-xillik parchalanishga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Xalifalik tarkibida ko'plab etnik guruhlar yashagan: arablar, forslar, turklar, berberlar, qibtiylar va boshqalar. Ularning har biri o'z tili, madaniyati va tarixiy an'analariga ega edi. Forslar o'zlarini qadimiy madaniyat egasi deb hisoblagan va arab ustunligiga qarshi bo'lganlar. "Shuubiya" harakati fors madaniyatining arab madaniyatidan ustunligini targ'ib qilgan. IX asrdan boshlab xalifalar o'z qo'shinlarida turk qullaridan (mamluklardan) foydalana boshladilar va vaqt o'tishi bilan turklar harbiy elitaga aylanib, siyosiy hokimiyatni o'z qo'llariga oldilar. Shimoliy Afrikada berberlar arablarning soliq va boshqaruv siyosatiga qarshi ko'p marta qo'zg'olon ko'tardilar.

Uchinchidan, diniy-mafkuraviy ziddiyatlar ham parchalanishga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Islom ichida turli diniy-siyosiy oqimlar paydo bo'ldi va ular o'rtasidagi ziddiyatlar xalifalikni ichdan yemirdi. Sunniylar ko'pchilikni tashkil etgan va xalifalarni qonuniy deb tan olganlar, shialar Aliyi ibn Abu Tolib va uning avlodlarini qonuniy xalifarlar deb hisoblagan va Umaviylar hamda Abbosiylarni g'asb qiluvchilar deb bilganlar. Shialar ko'p marta qo'zg'olon ko'tardilar, masalan, Zayd ibn Ali qo'zg'oloni (740) va Fotimiylar harakati. Xorijiylar esa radikal guruh bo'lib, faqat eng yaxshi musulmonning xalifa bo'lishi kerak, deb hisoblagan va mavjud xalifalarni kofir deb e'lon qilganlar. Al-Masudiy yozganidek, "Musulmonlar o'rtasidagi diniy ixtiloflar ularni zaiflashtirdi va yagonalikni yo'qotdilar."

To'rtinchidan, iqtisodiy inqiroz ham muhim omil bo'ldi. Xalifalikni keng hududlari yuqori harbiy va ma'muriy xarajatlarni talab qilardi. Vaqt o'tishi bilan markaziy xazinaga soliq tushumlari kamaydi, chunki mahalliy hokimlar soliqlarni o'zlari uchun sarflar edilar. Doimiy urushlar va qo'zg'olonlar davlat moliyasini

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

charchatdi, savdo yo'llari xavfsizligi pasaydi va qishloq xo'jaligi hamda hunarmandchilik taraqqiyoti to'xtadi.

Beshinchidan, mahalliy sulolalarning kuchayishi parchalanishning bevosita natijasi bo'ldi. Tohiriylar (821-873) Xurosonda rasmiy ravishda xalifaga bo'ysungan, lekin amalda mustaqil siyosat olib borgan va Xuroson hamda Movarounnahrda arablar hukmronligi zaiflay boshlagan. Safforiylar (861-1003) Seystonda ochiqchasiga xalifaga qarshi chiqdi va mahalliy qo'llab-quvvatlashga tayandi, bu oddiy qatlamdan chiqqan shaxs ham davlat asos solishi mumkinligini ko'rsatdi. Somoniylar (819-999) Movarounnahrda to'liq mustaqil markazlashgan davlat, o'z tangalari, o'z qo'shini va o'z diplomatik aloqalariga ega bo'ldilar hamda fors-tojik madaniyatining qayta tiklanishiga olib keldilar. V.V. Bartold yozganidek, "Somoniylar davlati Movarounnahrda arab xalifaligidan keyin paydo bo'lgan eng qudratli davlat edi va u mintaqaning tarixiy taqdirini belgilab berdi."

O'rta Osiyodagi mahalliy sulolalarning mustaqillikka erishishi ba'zi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, bu hududlar arab istilosi davridan oldin ham rivojlangan davlatchilik an'analariga ega bo'lgan (Sug'd shaharlari, Xuroson) va arab hukmronligi nisbatan qisqa - faqat ikki asr davom etgan. Ikkinchidan, mahalliy aholining aksariyati fors tilida so'zlashgan va o'z madaniy identikligini saqlab qolgan, arablar esa demografik jihatdan oz sonli bo'lganlar. Uchinchidan, Movarounnahrda mahalliy dehqon (yerli zodagonlar) tabaqa o'z ijtimoiy mavqeini saqlagan va ular keyinchalik Somoniylar davlatining asosiy tayanch kuchiga aylanganlar. To'rtinchidan, Movarounnahrning geografik joylashuvi (Ipak yo'li ustida) unga iqtisodiy mustaqillik uchun katta imkoniyat berdi va Buxoro, Samarqand kabi shaharlar xalqaro savdo markazlariga aylandi.

XULOSA

Arab xalifaligining parchalanish jarayoni VIII-X asrlarda amalga oshgan murakkab va ko'p omilli tarixiy hodisa hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, parchalanishning asosiy omillari haddan tashqari keng hududlarni boshqarish

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

murakkabligi va ma'muriy tizim zaifligini, turli etnik guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlar va mahalliy identiklikni saqlab qolishga intilish, diniy-mafkuraviy ixtiloflar (sunniylar, shialar, xorijiylar o'rtasidagi nizolar), iqtisodiy inqiroz va markaziy xazinaning zaiflashuvi hamda mahalliy sulolalarning tabiiy ravishda kuchayishi va mustaqillikka erishishidan iborat.

Parchalanish jarayoni bir zumda emas, balki ikki asr davomida bosqichma-bosqich amalga oshdi: Horun ar-Rashid davridan boshlab markaziy hokimiyatning zaiflashuvi, IX asrda mahalliy sulolalarning paydo bo'lishi va X asrda xalifaning faqat diniy-ramziy institutga aylanishi kuzatildi. Movarounnahr va Xurosondagi Tohiriylar, Safforiylar va Somoniylar sulolalarining mustaqillikka erishishi O'rta Osiyo tarixida muhim bosqich bo'ldi. Xususan, Somoniylar davlati to'liq mustaqil, markazlashgan davlat sifatida fors-tojik madaniyatining qayta tiklanishiga va mintaqaning iqtisodiy gullab-yashnashiga olib keldi.

Siyosiy birlik yo'qolgan bo'lsa ham, islom ummasi diniy-madaniy birlik sifatida saqlanib qoldi. Xalifa instituti siyosiy hokimiyatni yo'qotgan taqdirda ham, diniy avtoritet va legitimlik manbai sifatida faoliyat davom ettirdi. Arab xalifaligining parchalanishi salbiy hodisa emas, balki musulmon dunyosining tabiiy rivojlanishi va ko'p markazli tizimga o'tishi edi. Bu jarayon mahalliy davlatchilik an'analarining tiklanishiga, mintaqaviy madaniyatlarning gullab-yashnashiga va ilm-fan markazlarining ko'payishiga olib keldi. Xulosa qilib aytganda, Arab xalifaligi o'z tarixiy mavjudligi davomida Sharq va O'rta Osiyo xalqlarining tarixida muhim iz qoldirgan va uning parchalanish jarayoni ham katta imperiyalarning umumiy rivojlanish qonuniyatiga mos keladi.

FOIDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1.Bennison, Amira K. The Great Caliphs: The Golden Age of the Abbasid Empire. – New Haven: Yale University Press, 2009.

2.El-Hibri, Tayeb. The Abbasid Caliphate: A History. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

3.Kennedy, Hugh. The Prophet and the Age of the Caliphates: The Islamic Near East from the Sixth to the Eleventh Century. 3rd Edition. – London: Routledge, 2016.

4.Kennedy, Hugh. The Early Abbasid Caliphate: A Political History. – London: Croom Helm, 1981.

5. Бартольд, В.В. Сочинения. Том 2. Часть 1: Общие работы по истории Средней Азии. – Москва: Наука, 1963.

6.Беляев, Е.А. Арабы, ислам и арабский халифат в раннее средневековье. 2-е издание. – Москва: Наука, 1965.

7.Большаков, О.Г. История Халифата. Том 4: Апогей и падение арабского Халифата. – Москва: Восточная литература РАН, 2010.

8.Фильштинский, И.М. История арабов и халифата (750-1517 гг.). 2-е издание. – Москва: Муравей, 2001.

9.Bosvort, K.E. Musulmon sulolalari: tarix va xronologiya ma'lumotnomasi / Tarjima: R. Shamsutdinov. – Toshkent: Fan, 2007.

10.Usmonov, Q.; Sodiqov, M. O'zbekiston tarixi: O'rta asr davri. – Toshkent: Sharq, 2005.

11.Zamonov, A.; Abdusodiqov, S. O'zbekiston tarixi. 2-qism: O'rta asrlar tarixi (VI-XVI asrlar). – Toshkent: Turon-Iqbol, 2024.

12.Rtveladze, E.V. Civilizations, States and Cultures of Central Asia. – Tashkent: SMI-ASIA, 2020.

13.Hodgson, Marshall G.S. The Venture of Islam: Conscience and History in a World Civilization. Vol. 1: The Classical Age of Islam. – Chicago: University of Chicago Press, 1974.

14.Lapidus, Ira M. A History of Islamic Societies. 3rd Edition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.

15.Мухаммаджонов, А.Р. Мероприятие Сомонидов и их место в истории цивилизации народов Центральной Азии. – Toshkent: Академия наук Республики Узбекистан, 1999.